

“O‘zkimyosanoat” AJda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-martdagi “oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish cho‘ra-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur qabul qilindi.

Bugungi kunda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida 29 000 nafar mutaxassis faoliyat yuritadi, shulardan 9860 nafarni (34 foiz) ayollardir. Yirik korxonalarda bu ko‘rsatkich quyidagicha: “Maxam-Chirchiq” AJda (35 foiz), “Farg‘onaazot” AJda (37 foiz), “Ammofos-Maxam” AJda (37 foiz), “Navoiyazot” AJda (40 foiz), “O‘zkimyosanoatloyiha” AJda (48 foiz)ni tashkil etmoqda.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi tashabbusi bilan Davlatimiz rahbarining qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tizim korxonalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha **maslahatchi va psixolog lavozimi joriy etildi**. Maslahatchilarning vazifalari qatoriga ayol xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ayollar hamda erkaklar uchun teng mehnat sharoitlarini ta‘minlash, shuningdek, jamoa a‘zolarining oilalari farovonligini nazorat qilish kiradi. Oilada zo‘ravonlik, ayollar va qizlarning huquqlarini poymol qilish holatlarining oldini olish, maktabgacha ta‘lim muassasalarida baxtli onalik va bola parvarishi uchun shart-sharoitlarni ta‘minlash, Xalqaro Konvensiyalar va O‘zbekiston milliy qonunchiligi me‘yorlarida belgilangan xotin-qizlar huquqlariga rioya etish jarayonlarini muntazam nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi, onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi rolini oshirish uchun shart-sharoit yaratilmoqda. Xodimlarimizning kasbiy o‘sishi, ilm-fan va ijod, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi, madaniy hordiq chiqarishi uchun imkoniyatlar mavjud.

Ehtiyojmand xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi ta‘minlangan. Xususan, yolg‘iz onalarga yoki nogiron bolalarni tarbiyalayotgan ayollarga dori-darmon sotib olish, uy-joylarini ta‘mirlash uchun to‘lov, bolalar ovqatlarini sotib olishlari uchun moddiy yordam ko‘rsatilmoqda.

2024-yilda “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan moddiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish doirasida **6193 nafar** ayollarimiz **bepul tibbiy ko‘rikdan** o‘tkazildi, **13 nafar** xotin-qizlarimizning xonadonida **ta‘mirlash ishlari** olib borildi, **801 nafar** xotin-qizlarga **dori-darmon** xarajatlari to‘lab berildi, **685 nafar** kam

ta'minlangan oilalarga oziq-ovqat paketlari, 236 nafar yolg'iz onaga oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan farzandlarining ta'lim olishi uchun shartnoma puli to'lab berildi, 171 nafar ko'p bolali onalarga moddiy yordam ko'rsatildi.

2024-yil mobaynida "O'zkiyosanoat" AJ tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar tomonidan jami 245 ta murojaat kelib tushgan. Asosiy murojaatlardan 213 tasi ijobiy hal qilingan, 32 nafar murojaatchiga tushuntirish berilgan. Jumladan, 5 nafar ayolning uylari ta'mirlab berilgan, 26 nafar xotin-qizlarning o'zlariga, 145 nafar xotin-qizlarning farzandlarining kontrakt pullari to'lab berildi, uy-joy olishga subsidiya ajratish masalalarida murojaat qilgan 11 nafar ayolga hokimiyat tomonidan subsidiya ajratib berildi. 2 ta ayolga "Himoya orderi" olib berilgan. Barcha korxonalarda smenadan chiqqan xotin-qizlar uchun fitnes klublari tashkillashtirildi.

Bundan tashqari, 2766 nafar ayollarning sog'ligini tiklashga 1282,2 mln so'm mablag' ajratildi. **1278 nafar xotin-qizlar** "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" shiori ostida turli tarixiy shaharlarga **sayohatga** yuborildi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish gender tenglik va oila masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va o'zaro tajriba almashish maqsadida Qozog'istondagi "MCQ Company KZ" MChJ (Qozog'iston) hamda Belorussiya Respublikasidagi "Niva-Xolding" kompaniyasi bilan **memorandum** imzolandi. Hozirda hamkorlik uchrashuvlari tashkil etilmoqda.

Shuningdek, hozirda **Rossiya, Xitoy, Turkiya, Ozarbayjon va Gruziya** davlatlari bilan aynan og'ir sanoat yo'nalishida faoliyat olib borayotgan yirik korxonalar va kompaniyalar bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash borasida muloqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" PQ-401-son qarori 1-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zkiyosanoat" AJda **4 nafar** xotin-qizlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida "Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari" bo'yicha qisqa muddatli kursida tahsil olib sertifikatlar olishdi va suhbatdan muvaffaqiyatli o'tib, **korporativ boshqaruvchisining malaka attestatiga ega bo'ldilar** va bu bilan Kuzatuv kengashi tarkibiga kirish huquqiga ega bo'ldilar.

Mustaqillik bayramiga bag'ishlab, ayollar o'rtasida voleybol bo'yicha musobaqa tashkil etildi: 1-o'rinni "Maxam-Chirchiq" AJ, 2-o'rinni "Qizilqum fosforit kompleksi" AJ, 3-o'rinni "Dehqonobod kaliy jamoasi" AJ jamoasi egalladi.

Tantanali taqdirlash marosimida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari Akobir To'xtayev "Maxam-Chirchiq" AJ jamoasiga "**Boshqaruv raisi kubogi**"ni topshirdi. Shuningdek, sovrindorlarga pul mukofotlari taqdim etildi.

Tashabbus:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq ishchi-xodimlari va ularning ishsiz oila a‘zolarini daromadli mehnat bilan kasanachilik asosida band qilish natijasida jami **437 nafar ishsiz fuqarolarning bandligi** ta‘minlanishiga erishildi. Bugungi kunda 437 nafar pillakorlar jami **23 880 kg** (salkam 24 tonna) pilla xomashyosini yetishtirib, respublika pilla xirmoniga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son Farmoniga asosan hozirda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan hamkorlikda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirish, ishsiz xotin-qizlar bandligini ta‘minlash maqsadida qo‘lda gazlamalar to‘qish: atlas, beqasam, adras, tabiiy ipak, sun‘iy ipdan to‘qilgan gazlamalar ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida adras sexlari tashkil etish rejalashtirilmoqda. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatida hunarmand ayollarni jalb etadigan “Navoiy adrasi” kasanachilik sexi tashkil etish ishlari olib borilmoqda va 50 nafar yangi ish o‘rni yaratiladi.

Joriy yil 18-sentabr kuni “O‘zkimyosanoat” AJ va Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi o‘rtasida **hamkorlik memorandumi** imzolandi.

Erishilgan yutuqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan o‘tkazilgan “Gender tenglik faoli – 2022” milliy tanlovida ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, Oila va gender tengligi qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan “Gender tenglik faoli-2023” milliy tanlovining **“Gender tenglikni ta‘minlashda eng faol davlat organi (tashkiloti)”** nominatsiyasi bo‘yicha **“Navoiyazot” AJ 1-o‘rinni** egalladi.

2. 2024-yil mobaynida 2 nafar ayol **“Mo‘tabar ayol”**, 1 nafari **“Namunali oila”** va 1 nafari **“Ma‘naviyat fidoiysi”** ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

3. 2024-yil 5-mart kuni “O‘zkimyosanoat” AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o‘rtasida ilk bor “Eng faol innovator ayol” tanlovi o‘tkazildi. Tanlovga 22 ta yangi loyiha kelib tushdi.

Kelgusi yillarda oliy ta‘lim talabalarini ham jalb etgan holda mazkur tanlov o‘tkazilishi bo‘yicha nizom ishlab chiqildi. E‘tiborlisi, tanlovda g‘olib bo‘lgan xotin-qizlar malaka oshirib, o‘z korxonalarida rahbarlik lavozimlarini egallash uchun

zaxiraga kiritildi. Eng yaxshi loyihalar korxonalar mablagʻlari hisobidan amalga oshirish uchun taklif etiladi. Kelgusida ishtirokchilar oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlib, gʻolib boʻlsa, unga ixtisoslashtirilgan oliy oʻquv yurtiga oʻqishga kirish uchun tavsiyanoma beriladi, shartnoma asosida qabul qilingan iqtidor egalariga esa xarajatlar korxonalar tomonidan toʻlanadi.

4. 7-may kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti sport majmuasida Oʻzbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligi hamda Oʻzbekiston gimnastika federatsiyasi tomonidan “15-may – “Xalqaro oila kuni” va “Yangi Oʻzbekistonning ibratli oilasi” koʻrik-tanlovini nishonlash maqsadida, vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari hamda ularning oilalar aʼzolari oʻrtasida **“Sport – nafislik va salomatlik manbai” shiori** ostida Gimnastrada festivali boʻlib oʻtdi. Ushbu festivalda “Oʻz kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati oʻtgan yildagi kabi faol ishtirok etdi. “Maxam-Chirchiq” AJning 10 nafar ayollari Jamiyat jamoasi sifatida munosib qatnashdi va **“Eng yaxshi musiqa hissi uchun” nominatsiyasi gʻolibi** boʻldi.

Xalqaro oila kuni munosabat bilan 2024-yil 15-may kuni Chirchiq shahrida “Yangi Oʻzbekistonning ibratli oilasi” koʻrik tanlovi boʻlib oʻtdi. Tanlov avvalida “Maxam-Chirchiq” AJ Oila va xotin-qizlar kengashi raisi **M. Shorayimovaga “Eng faol rahbar ayol timsoli”** nominatsiyasi boʻyicha gʻoliblik diplomi topshirildi.

Boshqaruv raisi maslahatchisi

S. Abduraxmanova